

TARIX DARSLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARIDA GENDER TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Muhiddinova Nasiba Odilxon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (tarix) 1-kurs magistranti

Telfon raqam: +99890 798-71-71

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishning metodik asoslari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida gender tolerantlik tushunchasining pedagogik mohiyati, uning tarixiy ong va ijtimoiy tafakkur bilan uzviy aloqadorligi asoslab beriladi. Tarix darslarida gender munosabatlarining evolyutsiyasi, ayol va erkaklarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, tarixiy shaxslar faoliyatida gender tenglik g'oyalarining namoyon bo'lish shakllari o'quvchilarda ijtimoiy adolat, o'zaro hurmat va tolerantlik qadriyatlarini rivojlantirishning muhim manbai sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Gender tolerantlik, tarix ta'limi, gender madaniyati, ijtimoiy tenglik, tarixiy tafakkur, pedagogik metodika, gender stereotiplari, tarbiyaviy ta'lim, fuqarolik kompetensiyasi.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ГЕНДЕРНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ШКОЛЬНИКОВ ЧЕРЕЗ УРОКИ ИСТОРИИ

Мухиддинова Насиба Одилхановна

Наманганский государственный педагогический институт

Магистрант 1 курса по методике преподавания общественно-гуманитарных дисциплин (история)

Телефон: +99890 798-71-71

Аннотация: В данной статье научно-теоретически и практически анализируются методические основы формирования у школьников культуры гендерной толерантности в процессе преподавания истории в общеобразовательной школе. В рамках исследования обосновывается педагогическая сущность понятия гендерной толерантности и его органическая связь с историческим сознанием и социальным мышлением. Эволюция гендерных отношений на уроках истории, роль женщин и мужчин в развитии общества, а также проявления идей гендерного равенства в деятельности исторических личностей рассматриваются как важные источники формирования у учащихся ценностей социальной справедливости, взаимного уважения и толерантности.

Ключевые слова: гендерная толерантность, историческое образование, гендерная культура, социальное равенство, историческое мышление, педагогическая методика, гендерные стереотипы, воспитательное образование, гражданская компетентность.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING GENDER TOLERANCE CULTURE IN SCHOOL STUDENTS THROUGH HISTORY LESSONS

Muhiddinova Nasiba Odilxon qizi

Namangan State Pedagogical Institute

*1st-year Master's student in Methodology of Teaching Social and Humanitarian
Sciences (History)*

Phone: +99890 798-71-71

Abstract: *This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the methodological foundations for developing a culture of gender tolerance in school students through the teaching of history in general education schools. The study substantiates the pedagogical essence of the concept of gender tolerance and its organic connection with historical consciousness and social thinking. The evolution of gender relations in history lessons, the role of women and men in societal development, and the manifestations of gender equality ideas in the activities of historical figures are interpreted as important sources for fostering students' values of social justice, mutual respect, and tolerance.*

Keywords: *gender tolerance, history education, gender culture, social equality, historical thinking, pedagogical methodology, gender stereotypes, educational upbringing, civic competence.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – yosh avlodni demokratik qadriyatlar, ijtimoiy adolat va inson huquqlariga hurmat ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu jarayonda gender tolerantlik madaniyatini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Gender tolerantlik shaxsning jamiyatda mavjud bo'lgan gender farqlarini tabiiy, ijtimoiy va tarixiy hodisa sifatida qabul qilishi, erkak va ayol o'rtasidagi tenglik, o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillariga asoslangan munosabatni shakllantirishni anglatadi. Maktab ta'limida mazkur madaniyatni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri tarix fanidir, chunki tarix ijtimoiy ongini, qadriyatlar tizimini va dunyoqarashni shakllantiruvchi kuchli tarbiyaviy salohiyatga ega. Tarix darslari orqali gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishda milliy va jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan ayol siymolarining hayoti, ijodi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek va jahon tarixida ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi faol ishtiroki, ularning ilm-fan, adabiyot, madaniyat, siyosat va ijtimoiy hayotdagi o'rni

uzoq yillar davomida yetarli darajada yoritilmagan yoki ikkinchi darajali masala sifatida talqin etilgan. Shu bois, tarix ta'limida Nodirabegim, Jahon Otin Uvaysiy, Dilshodi Barno, Nozimaxonim, Sobira Xoldorova, Bashorat Mirboboyeva, Zulfiya Umidova, Zarifa Saidnosirova, Dilbar Abdurahmonova, Xadicha Sulaymonova, Suyima G'aniyeva, Halima Xudoyberdiyeva, Ma'suma Qoriyeva, Tursunoy Saidazimova, Tamaraxonim, Zoya Kosmodemyanskaya, Zebo G'aniyeva, Raxima Alimova, Tojixon O'sarova, Oyimxon Dadaboyeva, Jahon Obidova, Yodgor Nasriddinova, Iroda To'laganova, Yekaterina Xilko, Diyora Keldiyorova, Tanzila Norboyeva, Feruza Mahmudova, Svetlana Artikova, Feruza Eshmatova kabi ayollarning tarixiy faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishning muhim metodik manbai bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Nodirabegim va Jahon Otin Uvaysiy ijodida ayolning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy fikrlash qobiliyati va axloqiy mas'uliyati tasviri orqali jamiyatda ayolning faol subyekt sifatida namoyon bo'lishi ifodalanadi[1]. Uvaysiy ijodida ayolning ichki erkinligi, ilmga intilishi va adolatga sadoqati gender tenglik g'oyalariining erta namunasidir. Bu jihatlar tarix darslarida o'quvchilarga ayollarning jamiyat rivojidadagi o'rni haqida chuqur tasavvur berish, gender stereotiplarni bartaraf etish imkonini yaratadi. Dilshodi Barno, Nozimaxonim va Sobira Xoldorova faoliyatida ayolning ijtimoiy faolligi, ma'rifatparvarlik g'oyalari va jamiyatni isloh etishga intilishi yaqqol namoyon bo'ladi[2]. Ularning hayotiy faoliyati tarixiy jarayonlarda ayollarning faqat passiv ishtirokchi emas, balki faol ijtimoiy kuch bo'lganini ko'rsatadi. Bu holat tarix ta'limida gender tolerantlikni shakllantirishda daliliy asos vazifasini bajaradi.

XX asr va zamonaviy davr ayol siymolari Bashorat Mirboboyeva, Zulfiya Umidova, Zarifa Saidnosirova, Dilbar Abdurahmonova va Xadicha Sulaymonova faoliyati esa ayollarning fan, siyosat, madaniyat va davlat boshqaruvidagi rolini ochib beradi. Masalan, Zarifa Saidnosirova va Xadicha Sulaymonova ilm-fan sohasida, Halima Xudoyberdiyeva va Suyima G'aniyeva adabiyot va madaniyatda ayol tafakkurining yuksak namunasini ko'rsatgan. Ularning ijodi tarix darslarida gender tenglikni ilmiy va madaniy taraqqiyot bilan uzviy bog'lash imkonini beradi. Alohida ta'kidlash joizki, Tamaraxonim, Zoya Kosmodemyanskaya va Zebo G'aniyeva

kabi shaxslar obrazida ayol jasorati, vatanparvarlik va fidoyilik timsoli namoyon bo'ladi[3]. Bu ayollarning tarixiy faoliyati gender tolerantlikni faqat ijtimoiy tenglik emas, balki vatan, jamiyat va insoniyat oldidagi umumiy mas'uliyat kontekstida talqin qilishga imkon beradi. Raxima Alimova, Tojixon O'sarova, Oyimxon Dadaboyeva va Jahon Obidova kabi ayollar faoliyati esa ayolning jamiyatdagi rahbarlik salohiyati, ijtimoiy tashkilotchilik qobiliyati va siyosiy madaniyatini namoyon etadi. Bu jihatlar tarix darslarida o'quvchilarning gender rollari haqidagi an'anaviy qarashlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqishiga xizmat qiladi. Zamonaviy siyosiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etayotgan Yodgor Nasriddinova, Iroda To'laganova, Diyora Keldiyorova, Tanzila Norboyeva, Feruza Mahmudova, Svetlana Artikova va Feruza Eshmatova kabi ayollar faoliyati tarixiy jarayonlarning uzluksizligini, ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi doimiy va barqaror ishtirokini tasdiqlaydi[4]. Ularning faoliyati tarix darslarida gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishda zamonaviy kontekstni yaratib, tarixiy tajriba va bugungi ijtimoiy ehtiyojlar o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Shu tariqa, tarix darslarida yuqorida qayd etilgan ayol siymolarining hayoti va ijodini tizimli, taqqoslama va muammoli yondashuv asosida o'rganish o'quvchilarda gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishning samarali metodik mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki o'quvchilarda ijtimoiy adolat, tenglik va o'zaro hurmatga asoslangan dunyoqarashni rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarix ta'limi orqali o'quvchilarda gender tolerantlik madaniyatini shakllantirish masalasi xorijiy pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlarda muhim ilmiy yo'nalish sifatida qaraladi. Ushbu mavzuga oid tadqiqotlar orasida amerikalik olim Joann Wallach Scott hamda britaniyalik pedagog-tadqiqotchi Christine Counsellning ilmiy qarashlari alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Ularning ishlari tarixiy bilim, gender tushunchasi va ta'limning tarbiyaviy funksiyasini uzviy bog'lagan holda tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Joann Wallach Scott genderni tarixiy tahlil kategoriyasi sifatida talqin qilib, uni biologik farq emas, balki ijtimoiy-madaniy konstruktsiya sifatida izohlaydi[5]. Uning fikricha, tarixiy bilimlarni gender yondashuv asosida qayta talqin qilish jamiyatdagi hokimiyat munosabatlari, ijtimoiy

rollar va madaniy stereotiplarni chuqur anglash imkonini beradi. Scott tarix darslarida ayollar va erkaklarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini muqobil va teng subyektlar sifatida yoritish zarurligini ta'kidlaydi. U ayollar tarixini alohida mavzu sifatida emas, balki umumiy tarixiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida o'rganish gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishning muhim sharti ekanini asoslaydi. Ushbu yondashuv maktab o'quvchilarida tarixiy tafakkur bilan bir qatorda ijtimoiy adolat va tenglik g'oyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Christine Counsell esa tarix ta'limining metodik va didaktik jihatlariga e'tibor qaratib, tarix fanini o'qitishda tanqidiy fikrlash va empatiya tushunchalarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, tarixiy shaxslar va jarayonlarni ko'p nuqtai nazardan o'rganish o'quvchilarda boshqacha ijtimoiy tajribaga ega guruhlariga nisbatan tushunish va hurmat hissini kuchaytiradi. Counsell tarix darslarida ayollar tarixini, jumladan, ularning siyosiy, madaniy va ijtimoiy faoliyatini o'rganishni o'quvchilarda gender stereotiplarni tanqidiy baholash vositasi sifatida ko'radi[6]. U gender masalasini tarixiy kontekstda ochib berish orqali o'quvchilarning fuqarolik ongini va tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi. Scott va Counsell qarashlarini uzviy bog'lab tahlil qilganda, tarix darslari orqali gender tolerantlik madaniyatini shakllantirish ikki muhim yo'nalishda amalga oshirilishi mumkinligi ayon bo'ladi: birinchidan, tarixiy bilim mazmunini gender yondashuv asosida boyitish; ikkinchidan, o'qitish metodikasini tanqidiy, muammoli va ko'p nuqtai nazarga asoslangan tarzda tashkil etish[7]. Ushbu ilmiy yondashuvlar maktab tarix ta'limida ayollar faoliyatini tizimli o'rganish, ularning jamiyat rivojida rolini xolis baholash va o'quvchilarda gender tenglikka asoslangan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

METODOLOGIK QISM

Mazkur tadqiqotda tarix darslari orqali maktab o'quvchilarida gender tolerantlik madaniyatini shakllantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganish maqsadida kompleks va tizimli metodologik yondashuvdan foydalanildi. Xususan, tadqiqot doirasida tarixiylik va mantiqiylik birligi tamoyiliga asoslangan tahlil metodi qo'llanilib, gender munosabatlarining tarixiy taraqqiyoti, ayollarning jamiyat

hayotidagi o'рни va ularning ijtimoiy-madaniy faoliyati tarixiy manbalar kontekstida o'rganildi. Shuningdek, gender yondashuv metodi asosida tarixiy materiallar qayta talqin qilinib, ayol va erkaklarning tarixiy jarayonlardagi ishtiroki teng va muqobil ijtimoiy subyektlar sifatida baholandi. Tadqiqotda muammoli-ta'lim metodi orqali tarix darslarida gender stereotiplarni aniqlash va ularni tanqidiy tahlil qilishga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlari yaratildi. Taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida turli tarixiy davrlardagi ayol siymolari faoliyati o'zaro qiyoslanib, gender tolerantlik g'oyalarining uzluksizligi ilmiy asosda yoritildi. Bundan tashqari, tarixiy manbalar bilan ishlash, biografik tahlil va reflektiv yondashuv metodlari qo'llanilib, o'quvchilarning empatiya, ijtimoiy mas'uliyat va tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishildi. Ushbu metodlarning integratsiyalashgan holda qo'llanilishi tarix ta'limi jarayonida gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarix darslari mazmunini gender yondashuv asosida boyitish hamda ayol siymolarining tarixiy va ijtimoiy faoliyatini tizimli o'rganishga yo'naltirilgan metodik modelni qo'llash maktab o'quvchilarida gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishda yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi. Xususan, tarixiy manbalar va biografik materiallar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning gender stereotiplarga nisbatan tanqidiy munosabati kuchayib, ayol va erkaklarning jamiyat taraqqiyotidagi rolini teng va muqobil ijtimoiy hodisa sifatida anglash darajasi sezilarli darajada oshdi. Muammoli vaziyatlar, taqqoslama tahlil va reflektiv mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda empatiya, ijtimoiy mas'uliyat va o'zaro hurmatga asoslangan munosabat shakllandi, bu esa gender tolerantlik madaniyatining tarkibiy komponentlari kognitiv, aksiologik va xulq-atvoriy jihatlarning uyg'un rivojlanishini ta'minladi. Shuningdek, tarix darslarida milliy va jahon tarixida faol bo'lgan ayol shaxslar faoliyatini uzviy o'rganish o'quvchilarning tarixiy tafakkuri bilan bir qatorda fuqarolik ongini rivojlantirib, gender tenglik g'oyalarini ijtimoiy qadriyat sifatida qabul qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

MUHOKAMA

Tarix darslari orqali maktab o'quvchilarida gender tolerantlik madaniyatini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik tafakkurda turlicha talqin etilmoqda. Ushbu masalada xorijiy ilmiy adabiyotlarda Joan Wallach Scott va James A. Banks qarashlari o'rtasida ma'lum darajada metodologik farqlar va ilmiy polemika kuzatiladi. Ularning bahsi tarixiy mazmunni gender nuqtai nazaridan talqin qilishning chegaralari va ta'lim jarayonidagi tarbiyaviy funksiyasiga oid masalalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Joan Wallach Scott tarixiy bilimlarni gender kategoriyasi orqali qayta tahlil qilishni zarur deb hisoblaydi va genderni ijtimoiy tengsizliklarni anglashning asosiy analitik vositasi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, tarix darslarida ayollar faoliyatini alohida epizodlar sifatida emas, balki hokimiyat, ijtimoiy rollar va madaniy diskurslar tizimi doirasida yoritish zarur. Scott gender yondashuvni tarix ta'limining markaziy metodologik komponentiga aylantirish tarafdori bo'lib, bu orqali o'quvchilarda gender tenglik va tolerantlik madaniyatini shakllantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi. Biroq u tarixiy materiallarni haddan tashqari ideologiyalashtirish xavfi mavjudligini ham tan oladi, bu esa o'qituvchidan yuqori darajadagi ilmiy va metodik tayyorgarlikni talab etadi. James A. Banks esa tarix ta'limini ko'proq ko'pmadaniyatli ta'lim konsepsiyasi doirasida ko'rib chiqadi va gender masalasini ijtimoiy xilma-xillikning tarkibiy qismi sifatida talqin etadi[8]. Uning nuqtai nazariga ko'ra, tarix darslarida gender tolerantlikni shakllantirish o'quvchilarning umumiy fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Banks gender masalasini alohida nazariy muammo sifatida emas, balki etnik, madaniy va ijtimoiy farqlar bilan bir qatorda muvozanatli tarzda yoritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. U Scott yondashuvini ba'zan haddan tashqari nazariylashgan va maktab amaliyoti uchun murakkab deb baholaydi[9]. Mazkur polemikadan ko'rinadiki, Scott gender tahlilni chuqur nazariy asosda olib borishni yoqlasa, Banks uni amaliy-ta'limiy samaradorlik nuqtai nazaridan cheklangan holda qo'llash tarafdoridir. Biroq har ikkala olim qarashlari tarix darslarida gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Scottning genderni tahliliy kategoriya sifatida qo'llash g'oyasi tarixiy ongni chuqurlashtirsa, Banksning ko'pmadaniyatli yondashuvi o'quvchilarda ijtimoiy murosaga tayyorlik va tolerantlik kompetensiyalarini mustahkamlaydi[10].

Shu bois, ushbu tadqiqot doirasida har ikki yondashuvni integratsiyalash tarix ta'limida gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishning eng maqbul modeli sifatida talqin etiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot tarix darslari orqali maktab o'quvchilarida gender tolerantlik madaniyatini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim va strategik yo'nalishi ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Tarix fanining ijtimoiy ongini shakllantiruvchi kuchli tarbiyaviy salohiyati ayol va erkaklarning jamiyat taraqqiyotidagi rolini xolis va muvozanatli yoritish orqali o'quvchilarda gender tenglik, ijtimoiy adolat va o'zaro hurmatga asoslangan dunyoqarashni rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, tarixiy bilimlarni gender yondashuv asosida tizimli qayta talqin qilish o'quvchilarning nafaqat tarixiy tafakkurini, balki ularning fuqarolik ongini va tolerantlik kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarix darslarida Nodirabegim, Jahon Otin Uvaysiy, Halima Xudoyberdiyeva, Tamaraxonim, Zoya Kosmodemyanskaya, Tanzila Norboyeva kabi milliy va jahon miqyosida tan olingan ayol siymolarining hayoti va faoliyatini uzviy, taqqoslama va muammoli yondashuv asosida o'rganish o'quvchilarda gender stereotiplarga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantiradi. Bu esa gender tolerantlik madaniyatining kognitiv, aksiologik va xulq-atvoriy komponentlarining uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, ayol shaxsining tarixiy jarayonlardagi faolligini dalillarga tayangan holda yoritish o'quvchilarning gender rollari haqidagi an'anaviy qarashlarini qayta ko'rib chiqishiga zamin yaratadi. Shuningdek, tadqiqot davomida qo'llanilgan metodologik yondashuvlar – tarixiylik va mantiqiylik birligi, gender tahlil, muammoli ta'lim, biografik va refleksiv metodlar – tarix ta'limi jarayonida gender tolerantlik madaniyatini shakllantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekani aniqlandi. Ushbu metodlarning integratsiyalashgan holda qo'llanilishi o'quvchilarda empatiya, ijtimoiy mas'uliyat va demokratik qadriyatlarga sadoqatni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yuldashev J. DEVELOPING AXIOLOGICAL WORLD VIEW IN STUDENTS IN TEACHING HISTORY //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – C. 281-283.

2. Yuldashev J. A. Content of development of axiological position in future teachers in the process of history education //current research journal of pedagogics. – 2023. – T. 4. – №. 06. – C. 82-88.
3. Urishbayevna Q. U. JAHON OTIN UVAYSIYNING "QIZLAR MAKTABI" ILK TA'LIM TASHKILOTI SIFATIDA //TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 426-427.
4. Xudoynazarova N. Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 12.
5. Otajonova O. O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 12.
6. Bakiyeva M. O'zbekistonda ayollarning ma'naviy faoliyati hamda ijtimoiy faolligi //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 12.
7. Shohbozbek E. Theoretical foundations for the development of the spiritual worldview of youth //Maulana. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 29-35.
8. Jabbarova Z. GENDER TENGLIK VA AYOLLAR HUQUQLARI: GLOBAL VA MAHALLIY MUAMMOLAR TAHLILI //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2025. – T. 4. – №. 18. – C. 89-92.
9. Babaraimova G. GENDER TENGLIGI VA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TAMINLASH BOYICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR TAHLILI //Наука и инновация. – 2025. – T. 3. – №. 17. – C. 115-117.
10. Muruvvat A., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY VA AHVOQIY QADRYATLARDA MAKTABGACHA TA'LIMNING RO'LI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 246-253.